



XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 27 - aprel

VI-64-48-11-164-K/23

Furqat tuman hokimligi

Furqat tumani budjeti ijrosi, shuningdek, mahalliy budget daromadlarining qo'shimcha manbalarini shakllantirish va qo'shimcha manbalardan foydalanish yo'nalishlari, mahalliy budget daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrdagi PF-5283-sonli farmonida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tuman moliya bo'limi tomonidan budjeti ijrosi, shuningdek, mahalliy budget daromadlarining qo'shimcha manbalarini shakllantirish va qo'shimcha manbalardan foydalanish yo'nalishlari, mahalliy budget daromadlarini oshirishning aniqlangan rezervlar bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, tumanda 2023 yil I chorak yakuni bo'yicha tuman mahalliy budgeti daromadlari rejasi 7 939,4 mln.so'mga tasdiqlangan hamda haqiqatda mahalliy budgetga jami 7 950,0 mln.so'm mablag' jalb etilib, belgilangan reja 100,1 foizga bajarilgan.

Tuman mahalliy budgetining 2023 yil I chorak bo'yicha aniqlangan xarajatlari rejasi 47 033,6 mln.so'm bo'lib, bajarilish 45 586,9 mln.so'mni (96,9%) tashkil etgan yoki 1 446,7 mln.so'mga kam bajarilgan.

Shundan;

Ish xaqi va unga tenglashtirilgan xarajatlari aniqlangan rejasi 28 791,5 mln.so'm bo'lib, 28 595,8 mln.so'mga yoki 99,3 % ga, ya'ni 195,7 mln.so'mga kam bajarilgan.

Yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari aniqlangan rejasi 4 375,6 mln.so'm bo'lib, 4 357,6 mln.so'mga yoki 99,6% ga, ya'ni 17,9 mln.so'mga kam bajarilgan.

Boshqa xarajatlari aniqlangan rejasi 13 866,6 mln.so'm bo'lib, 12 633,5 mln.so'mga yoki 91,1% ga, ya'ni 1 233,1 mln.so'mga kam bajarilgan.

Shuningdek, I chorak davomida respublika budgetidan ijtimoiy soxa uchun ish haqi to'lovlariiga jami 28 830,0 mln.so'm ijtimoiy transfertlar ajratilgan.

Tuman mahalliy budgetiga I chorak davomida daromad va xarajatlar o‘rtasidagi tafovutni qoplash maqsadida viloyat budgetidan 8 190,4 mln.so‘m mablag‘lari ajratilgan.

2023 yil I chorak davomida soxalar kesimida amalga oshirilgan budget harajatlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

1. Maktabgacha ta’lim sohasiga 5 442,1 mln.so‘m, (shundan Davlat xususiy sherikchilik asosida tashkil etilgan MTTlarga berilgan subsidiya 2 750,2 mln.so‘m)
2. Xalq ta’limi sohasiga 1 528,5 mln.so‘m
3. Sog‘lijni saqlash sohasiga 15 294,5 mln.so‘m (shundan dori darmon uchun 586,6 mln.so‘m)
4. Madaniyat va sport harajatlariga 940,9 mln.so‘m,
5. Davlat boshqaruvi organlari harajatlariga 3 221,2 mln.so‘m,
6. Ijtimoiy nafaqa harajatlari uchun 10 953,6 mln.so‘m.
7. Iqtisodiyot xarajatlariga 1 703,0 mln.so‘m
8. Open budget uchun ajratilgan mablag‘ 4161,4 mln.so‘m
9. Boshqa soxa va xarajatlar 2 341,7 mlrd.so‘m

Mablag‘lar I chorak davomida to‘liq moliyalashtirildi.

2023 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari 503,8 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar tuman hokimining tegishli farmoyishlari asosida tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xarajatlari uchun yo‘naltirilgan

Jumladan:

- Ayollar daftari uchun 76,0 mln so‘m;
- Yoshlar daftari uchun 76,0 mln so‘m;
- Openbudget.uz axborot portalini orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga 151,2 mln so‘m;
- “Yashil makon” dasturi doirasida manzarali va mevali daraxtlar hamda buta ko‘chatlari uchun 49,9 mln so‘m;
- Rag‘batlantirish harajatlari uchun 140,7 mln.so‘m;
- boshqa harajatlar uchun 10,0 mln. so‘m mablag‘lar ajratilib, harajatga chiqarilgan.

Shuningdek, viloyat mahalliy budgetidan tuman hokimligi jamoatchilik bo‘yicha maslahatchisi ish haqisi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun 131,0 mln.so‘m hamda tuman mahalliy budgetining 2023 yil I choragida zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ham tuman hokiminining tegishli farmoyishlariga asosan jami 513,0 mln.so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, ushbu mablag‘lar tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlarni ta’minlashga qaratilgan xarajatlar uchun moliyalashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib “Mahalliy Davlat hokimiyligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Furqat tumani moliya bo‘limi boshlig‘i S.Axmedovning tumani mahalliy budgetining 2023 yil I chorak ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi Q.Abduraxmonov va moliya bo‘limi S.Ahmedov mahalliy budget daromadlari tushumini ta’minlab borish, soliq yig‘uvchanligini oshirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning budget oldidagi boqimanda qarzdorligini qisqartirish hamda hududlarning daromad bazasini mustahkamlash va doimiy ravishda mahalliy budgetlarga qo‘sishimcha daromadlar tushumini jalb etilishini ta’minlagan holda 2023 yilning II choragi yakuni bilan tuman mahalliy budget daromadlariga qo‘sishimcha 1 mldr so‘m mablag‘ tushum qilish vazifasi yuklansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Valiev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



J.Jumanov